XALQ DEPUTATLARI BESHARIQ TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Beshariq tumani, Oltin vodiy ko‘chasi 160-uy tel (73) 612-20-08

2021 - yil 31 - dekabr VI-51-56-11-153-K/21 Beshariq tumani hokimligi

Beshariq tumanining 2022- yilgi mahalliy budjetini

tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 01/20-01-32/845-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi O’RQ-742-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Beshariq tumani mahalliy budjetining 2022-yilgi daromadlari 91 018,1 mln.so‘m va xarajatlari 195 555,3 mln.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 104 537,2 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman budjetidan 2022-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Yuqori budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

8. 2022-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 843,9 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, tuman budjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘arini Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

9. 2022-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 688,0 mln.so‘m 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022- yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar:

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aktsiz solig‘i ;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

ayrim tovarlarni chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovlardan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat budjeti daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo‘yicha ajratmalar va dividentlar;

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar;

Boshqa tushumlar (ushbu bandning “v” va “g” qismlarida nazarda tutilgan daromadlardan tashqari barcha daromadlar, shu jumladan, tuman va shahar mahalliy budjetlarining boshqa tushumlari hamda budjet tashkilotlari asosiy vositalari sotilishidan tuman va shahar budjetlariga tushumlar) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘lig‘icha o‘tkazilishi;

b) Mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aktsiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi;

v) Quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar tuman budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

g) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti va tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning tumanda 50 foizi;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aktsiz solig‘idan tushumlarning tumanda 20 foizi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) tumanda 50 foizi;

yuridik shaxslar yer va mol-mulk soliqlari hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig‘idan tushumlarning 50 foizi;

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

12. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Samatov), Moliya bo‘limi (Gulmatov), Davlat soliq inspeksiyasi (Turonov) birgalikda 2022-yilgi mahalliy budjetida belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

13. Belgilansinki:

tuman tashkilotlar tomonidan 2022-yilda budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Turonov):

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to‘liq va tog‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

Yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

Aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kamerali soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda videomateriallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish

vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Turonov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Farg‘ona mintaqaviy inspeksiyasi (Raximov) hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo’shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Beshariq tumani bo‘limi (S.Qo‘shmoqov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (Turonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi (Yuldasheva), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsinlar.

18. Qonunning 13-moddasiga muvofiq:

tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha Qonunning 6-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa, moliya yil oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan;

tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha mazkur qarorning 1-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yil oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qilishi to‘g‘risidagi belgilangan tartibga amal qilsinlar.

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, tuman Xalq deputatlari, tuman hokimligi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas‘ulligi belgilab qo‘yilsin.

tuman budjeti, tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashlari tomonidan tuman hokimligining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish,

rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar tegishincha tuman hokimligi tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi.

19. Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy budjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

20. Tuman xokimligi va tuman maxalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin:

qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarida ularning natijalarini joylashtirib borilishini ta’minlasin.

21. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Samatov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilotlar rahbarlari:

Budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga kiritib borilishini ta’minlasin.

22. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

23. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Р.Жўраев**

Халқ депутатлари Бешариқ туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-51-56-11-153-K/21-сон қарорига
1-илова

Бешариқ тумани маҳаллий бюджетининг даромадларининг 2022 йилдаги асосий прогноз кўрсаткичлари

минг сўмда

Т/Р	Даромад турлари	Жами
I.	**Тартибга солувчи даромадлар**	**21 479 500**
1	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	*21 479 500*
2	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	*0*
II.	**Бириктирилган даромадлар**	**32 102 600**
	Тўлиқ туман маҳаллий бюджетига	**19 878 000**
1	Корхоналар айланмасидан солиқ	6 445 000
2	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	1 292 000
3	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	4 376 000
4	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	7 563 000
5	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	202 000
	Вилоят ва туман маҳаллий бюджетлари ўртасида тақсимланадиган даромадлар	**12 224 600**
1	Қурилиш материаллари бўйича ер қаридан фойдаланганлик учун солиқ	*2 644 500*
2	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	*2 437 600*
3	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	*1 275 000*
4	Юридик шахслардан ундириладиган ер солиғи	*3 783 000*
5	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	*2 084 500*
III.	**Маҳаллий бюджет даромадлари прогнози**	**53 582 100**
IV.	**Ўтказиб бериладиган даромадлар**	**37 436 000**
	Аҳоли сони (минг.киши) 01.07.2021 ҳолатига	*232*
14	Алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво	14 169 000
15	Мобиль алоқа хизматини кўрсатганлик учун акциз солиғи	8 072 000
16	Тамаки маҳсулотлари бўйича акциз солиғи	15 195 000
V.	**Маҳаллий бюджетларнинг жами даромадлари**	***91 018 100***
VII.	**Трансфертлар**	**104 537 223**

Халқ депутатлари Бешариқ туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-51-56-11-153-K/21-сон қарорига
2-илова

Туман маҳаллий бюджетидан 2022 йилги ҳудудий бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган харажатларнинг умумий чекланган миқдорлари

минг сўмда

№	Ҳудудий бюджет маблағлари тақсимловчилар номи	Тасдикланган режа
Харажатлар миқдори, Жами		**195 555 323**
1.	**ИЖТИМОИЙ СОҲА ВА АҲОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШГА ХАРАЖАТЛАР - ЖАМИ**	**153 800 966**
	шу жумладан:	
1.1	Маориф	29 396 800
	- мактабгача таълим	18 217 062
	- умумий таълим	11 179 738
	- кадрлар тайёрлаш	0
1.2	Соғлиқни сақлаш	73 539 713
1.3	Маданият ва спорт, оммавий ахборот воситалари	4 288 471
	- маданият ва оммавий ахборот воситалари	1 512 153
	- спорт	2 776 318
1.5	Болали оилаларга ва кам таъминланган оилаларга нафақалар ва компенсациялар	46 478 660
1.14	Ижтимоий кўникма марказлари	97 322
2.	**ИҚТИСОДИЁТГА ХАРАЖАТЛАР**	**11 396 412**
	шу жумладан:	
2.3	Ободонлаштириш	8 640 537
2.16	Ветеринария қўмитаси	1 090 875
2.17	Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун	1 665 000
3.	**МАРКАЗЛАШТИРИЛГАН ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШГА ХАРАЖАТЛАР**	**0**
4.	**ДАВЛАТ БОШҚАРУВ ОРГАНЛАРИНИ САҚЛАШ**	**10 950 006**
	шу жумладан:	
4.2	Давлат бошқарув идоралари	10 950 006
5.	**ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИНИ САҚЛАШ**	**6 024 612**
6.	**Сув хўжалиги вазирлиги ташкилотлари**	**1 723 900**
7.	**Фермерлар хўжаликлари бухгалтерия марказлари**	**503 277**
6.	**ЗАҲИРА ЖАМҒАРМАСИ**	**1 843 992**
7.	**БОШҚА ХАРАЖАТЛАР**	**9 312 158**
	шу жумладан:	
7.3	Фуқаролар ташаббуси жамғармаси	9 312 158

Халқ депутатлари Бешариқ туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-51-56-11-153-К/21-сон қарорига
3-илова

2022 йил учун бюджет даромадларининг маҳаллий бюджетлар ўртасида тақсимланиши бўйича ажратма меъёрлари

Фоиз ҳисобида

Т/Р	Шахар ва тумаилар номи	Корхоналар айланмасидан солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Юридик шахслардан ундириладиган фойда солиғи	Бензин, дизел ёқилғиси ва газни якуний истеъмолчиларга реализация қилишдаги акциз солиқ	Жисмоний шахслар мол-мулкига солинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан ер солиғи	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	Юридик шахслар ер солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ
8	Бешариқ тумани	100	50	100		20	100	100	50	100	50	50	50

Халқ депутатлари Бешариқ туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-51-56-11-153-K/21-сон қарорига
4-илова

минг сўмда

Ҳудуд номи	**Даромад**	**Харажат**
Бешариқ тумани	91 018 100,0	195 555 323,0

Халқ депутатлари Бешариқ туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-51-56-11-153-K/21-сон қарорига
5-илова

минг сўмда

Шаҳар ва туманлар	Тартибга солувчи трансферт миқдори жами
Бешариқ тумани	104 537 223

Халқ депутатлари Бешариқ туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-51-56-11-153-K/21-сон қарорига
6-илова

2022 йилда Бешариқ туман маҳаллий бюджетида айланма касса маблағларининг йўл қўйиладиган энг кам миқдори

минг сўмда

Т/р	**Ҳудуд номи**	**Миқдор**
1	Бешариқ тумани	688 000,0

Халқ депутатлари Бешариқ туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-51-56-11-153-K/21-сон қарорига
7-илова

Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ерлар учун юридик шахслар бўйича мутлоқ миқдорда белгиланган базавий солиқ ставкасига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

минг сўмда

Т/р	**Ҳудуд номи**	**Коэффициент (0,5 дан 3 гача)**	**Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (минг.сўм)**
1	Дўстлик МФЙ	1,01	29 290
2	СобиртепаМФЙ	1,01	29 290
3	Чинобод МФЙ	1,01	29 290
4	Капаянги МФЙ	1,01	29 290
5	Қияли МФЙ	1,01	29 290
6	Бўстон МФЙ	1,01	29 290
7	Пастки Яккатут МФЙ	1,01	29 290
8	Қорабўйин МФЙ	1,01	29 290
9	Бешкапа МФЙ	1,01	29 290
10	Эшон МФЙ	1,01	29 290
11	Ариқбоши МФЙ	1,01	29 290
12	Товул МФЙ	1,01	29 290
13	Қорақўйли МФЙ	1,01	29 290
14	Юқори Товул МФЙ	1,01	29 290
15	Узун МФЙ	1,01	29 290
16	Ғалча МФЙ	1,01	29 290
17	Қуйи Товул МФЙ	1,01	29 290
18	Қашқар МФЙ	1,01	29 290
19	Янги Қашқар МФЙ	1,01	29 290
20	Абдураззоқ ота МФЙ	1,01	29 290
21	Абдувай МФЙ	1,01	29 290
22	Ворух-Дашт МФЙ	1,01	29 290
23	Тошариқ МФЙ	1,08	31 320
24	Намуна МФЙ	1,01	29 290
25	Сойлаби МФЙ	1,01	29 290
26	Қум МФЙ	1,01	29 290
27	Пастки Янгиқўрғон МФЙ	1,01	29 290
28	Наби МФЙ	1,01	29 290
29	Қораянтоқ МФЙ	1,01	29 290

30	Рапқон МФЙ	1,01	29 290
31	Янги Рапқон МФЙ	1,01	29 290
32	Деҳқонобод МФЙ	1,01	29 290
33	Шайтонкўл МФЙ	1,01	29 290
34	Қўрғонча МФЙ	1,01	29 290
35	Телов МФЙ	1,01	29 290
36	Янги Ҳаёт МФЙ	1,08	31 320
37	Навбахор МФЙ	1,08	31 320
38	Шодликобод МФЙ	1,01	29 290
39	Ватан МФЙ	1,01	29 290
40	Бахмал МФЙ	1,01	29 290
41	Кулалобод КФЙ	1,01	29 290
42	Гамбай МФЙ	1,01	29 290
43	Янги МФЙ	1,01	29 290
44	Шоберди МФЙ	1,01	29 290
45	Қият Сартол КФЙ	1,01	29 290
46	Бешариқ МФЙ	1,01	29 290
47	Деҳқонтўда МФЙ	1,01	29 290
48	Чорбоғтўронғи МФЙ	1,01	29 290
49	Халқлар Дўстлиги МФЙ	1,08	31 320
50	Обод МФЙ	1,08	31 320
51	Бой МФЙ	1,08	31 320
52	Файзобод МФЙ	1,08	31 320
53	Юқори Зарқайнар МФЙ	1,01	29 290
54	Ўттиззамбар МФЙ	1,01	29 290
55	Оқтовуқ МФЙ	1,01	29 290
56	Қуйи Зарқайнар МФЙ	1,01	29 290
57	Чимбой МФЙ	1,01	29 290
58	Шўр МФЙ	1,01	29 290
59	Новкат МФЙ	1,01	29 290
60	Дала Хамид Олимжон МФЙ	1,08	31 320
61	Чорбоғ МФЙ	1,08	31 320
62	Булоқбоши МФЙ	1,08	31 320

Изох: Шаҳарлар ва туманлар Кенгашлари томонидан юридик шахслар учун ер солиги ставкасини маҳалла фуқаролар йиғинлари кесимида туман (шаҳар) марказлари узоқ-яқинлигига қараб, 0,7-3,0 камайтирувчи ва кўпайтирувчи коэффицентларни белгилаш ҳуқуқига эга.

Халқ депутатлари Бешариқ туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-51-56-11-153-К/21-сон қарорига
8-илова

Жисмоний шахслар бўйича (деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган қишлоқ хўжалигига мўлжаллаган ерлардан ташқари) мутлоқ миқдорда 1 кв.м. учун белгиланган базавий солиқ ставкаларига нисбатан киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

сўмда

Т/р	**Ҳудуд номи**	**Коэффициент (0,5 дан 3 гача)**	**Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (1 кв учун)**
1	Дўстлик МФЙ	1,01	262,6
2	СобиртепаМФЙ	1,01	262,6
3	Чинобод МФЙ	1,01	262,6
4	Капаянги МФЙ	1,01	262,6
5	Қияли МФЙ	1,01	262,6
6	Бўстон МФЙ	1,01	262,6
7	Пастки Яккатут МФЙ	1,01	262,6
8	Қорабўйин МФЙ	1,01	262,6
9	Бешкапа МФЙ	1,01	262,6
10	Эшон МФЙ	1,01	262,6
11	Ариқбоши МФЙ	1,01	262,6
12	Товул МФЙ	1,01	262,6
13	Қоракўйли МФЙ	1,01	262,6
14	Юқори Товул МФЙ	1,01	262,6
15	Узун МФЙ	1,01	262,6
16	Ғалча МФЙ	1,01	262,6
17	Қуйи Товул МФЙ	1,01	262,6
18	Қашқар МФЙ	1,01	262,6
19	Янги Қашқар МФЙ	1,01	262,6
20	Абдураззоқ ота МФЙ	1,01	262,6
21	Абдувай МФЙ	1,01	262,6
22	Ворух-Дашт МФЙ	1,01	262,6
23	Тошариқ МФЙ	1,08	280,8
24	Намуна МФЙ	1,01	262,6
25	Сойлаби МФЙ	1,01	262,6
26	Қум МФЙ	1,01	262,6
27	Пастки Янгиқўрғон МФЙ	1,01	262,6
28	Наби МФЙ	1,01	262,6

29	Қораянтоқ МФЙ	1,01	262,6
30	Рапқон МФЙ	1,01	262,6
31	Янги Рапқон МФЙ	1,01	262,6
32	Деҳқонобод МФЙ	1,01	262,6
33	Шайтонкўл МФЙ	1,01	262,6
34	Қўрғонча МФЙ	1,01	262,6
35	Телов МФЙ	1,01	262,6
36	Янги Ҳаёт МФЙ	1,08	280,8
37	Навбахор МФЙ	1,08	280,8
38	Шодликобод МФЙ	1,01	262,6
39	Ватан МФЙ	1,01	262,6
40	Бахмал МФЙ	1,01	262,6
41	Кулалобод КФЙ	1,01	262,6
42	Гамбай МФЙ	1,01	262,6
43	Янги МФЙ	1,01	262,6
44	Шоберди МФЙ	1,01	262,6
45	Қият Сартол КФЙ	1,01	262,6
46	Бешариқ МФЙ	1,01	262,6
47	Дехқонтўда МФЙ	1,01	262,6
48	Чорбоғтўронғи МФЙ	1,01	262,6
49	Халқлар Дўстлиги МФЙ	1,08	280,8
50	Обод МФЙ	1,08	280,8
51	Бой МФЙ	1,08	280,8
52	Файзобод МФЙ	1,08	280,8
53	Юқори Зарқайнар МФЙ	1,01	262,6
54	Ўттиззамбар МФЙ	1,01	262,6
55	Оқтовуқ МФЙ	1,01	262,6
56	Қуйи Зарқайнар МФЙ	1,01	262,6
57	Чимбой МФЙ	1,01	262,6
58	Шўр МФЙ	1,01	262,6
59	Новкат МФЙ	1,01	262,6
60	Дала Хамид Олимжон МФЙ	1,08	280,8
61	Чорбоғ МФЙ	1,08	280,8
62	Булоқбоши МФЙ	1,08	280,8

Изох: Шаҳарлар ва туманлар Кенгашлари томонидан жисмоний шахслар учун ер солиғи ставкасини маҳалла фуқаролар йиғинлари кесимида туман (шаҳар) марказлари узоқ-яқинлигига қараб, 0,7-3,0 камайтирувчи ва кўпайтирувчи коэффицентларни белгилаш ҳуқуқига эга.